



**FARZANDI KASB TANLASHDA OTA-ONALARGA  
PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISH**

*Xodjiyeva Lobar Axmedjonovna*

*Xorazm viloyati Xiva tuman 19-maktab amaliyotchi psixologi*

*Abdirimova Oygul Òktambayevna*

*Xorazm viloyati Xiva tuman 19-maktab amaliyotchi psixologi*

***Annotatsiya.** Maktab o'zining rejalashtirgan tadbirlariga muvofiq ravishda ota-onalar kanferensiyasini uyushtirish va o'tkazish kerak. Bu konfrensiyalarda korxonada kadrlar bo'limlari, mehnat resurslaridan foydalanish bo'yicha bo'limlarning, viloyat xodimlari, turli xil kasblarning, vakillari va o'quv yurtlarining rahbarlari hamda ota-onalar so'zga chiqishlari mumkin bo'ladi. Ular o'z kasblarining mazmuni haqida muvofaqiyatli mehnat qilishi uchun qo'llaniladigan zarur bilim va malakalar hamda boshqa narsalar to'g'risida bu kasbni qayerda va qanday egallash va shu hususida qanday mahoratli bo'lish haqida; yoshlar duch keladigan qiyinchiliklar haqida va o'quvchilar bilan oilaviy suhbatlar uchun tavsiyalar haqida gapirib berishlari kerak.*

Ayrim ota-onalar o'z balolarining kelajagiga passiv va sovuqqonlik bilan qaraydilar, ularga kasbtanlashga yordam bermaydilar, bu muammodan o'zlarining bexabarligi va noto'g'ri maslaxat berib qo'yishlaridan cho'chib, "o'zing ko'r", "qaysi biri yaxshi bo'lsa shuni tanla" va hokozalar qabilida ish tutib, o'zlarni chetga tortadilar. Ko'pchilik ota-onalar kasb tanlashga yo'llash masalalari bo'yicha maslahatlariga muhtojdirlar. Ular bunday yordamni suhbat, konsul'tatsiya va boshqa tadbirlar formasida maktab pedagogika jamoasi, vrach, psixolog, korxonada mutaxassislaridan olish mumkin.

Maktab o'zining rejalashtirgan tadbirlariga muvofiq ravishda ota-onalar kanferensiyasini uyushtirish va o'tkazish kerak. Bu konfrensiyalarda korxonada kadrlar bo'limlari, mehnat resurslaridan foydalanish bo'yicha bo'limlarning, viloyat xodimlari, turli xil kasblarning, vakillari va o'quv yurtlarining rahbarlari hamda ota-onalar so'zga chiqishlari mumkin bo'ladi. Ular o'z kasblarining mazmuni haqida muvofaqiyatli mehnat qilishi uchun qo'llaniladigan zarur bilim va malakalar hamda boshqa narsalar to'g'risida bu kasbni qayyerdan va qanday egallash va shu hususida qanday mahoratli bo'lish haqida; yoshlar duch keladigan qiyinchiliklar haqida va o'quvchilar bilan oilaviy suhbatlar uchun tavsiyalar haqida gapirib berishlari kerak. Buyuk mutafakkir olim Abu Ali Ibn Sino - Odamning yashashi uchun eng zarur narsa bu foydali mehnat jangi deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, ota-onalar o'z bolalariga yoshligidan ma'lum bir kasb-hunar o'rgatishlari lozim. Bola kasb-hunarni ma'lum darajada o'zlashtirib bo'lgandan so'ng uni kasb-hunaridan foydalanishga, ya'ni halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o'rgatish kerak. Mutafakkir bu ishning bolalar uchun ikki xil tarbiyaviy ahamiyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi:

1. Bola o'z kasb-hunari tufayli mustaqil turmush kechirib, uning dastlabki manfaatini ko'rgandan keyin, o'z hunariga yanada mahkam bog'lanib, unga nisbatan muhabbat orttiradi va uni takomillashtirishga intiladi.

2. Yashash takomili o'z zimmasiga yuklatilgandan keyin o'z kasb-hunariga odat hosil qiladi.

Kasbga ko'nikish davri odatda uchta xarakterli bosqich bo'yicha boradiki, ularning har biri pedagoglar uchun juda muhim xususiyatlarga ega. Kasbga ko'nikishning birinchi bosqichi – tanishtirish bo'lib, o'zining atrof-muhitdagi yangi rolini anglashdan iborat.

U tanlangan kasb bo'yicha muayyan malaka olishga qaror qilingandan boshlanadi va ishlab chiqarish ta'limiga dastlabki nazariy tayyorgarlik davrida

o'quv ustaxonalari hamda bilim yurti bilan tanishish davrida davom etadi.

Kasb-hunarga ko'nikishning bu birinchi bosqichida qabul qilingan qarorning to'g'riligini o'smir o'zi baholaydi kasbga, ishlab chiqarishga, kursdoshlar va o'qituvchilar bilim yurti va korxonaga munosabati vujudga keladi.

O'smir o'z kelajagiga nazar tashlaydi. Hamda tanlagan kasbida qandaydir jozibali va qandaydir xunuk tomonlarni ko'radi. Bolalikda o'yg'ongan, qiziqtirgan sohalar haqidagi o'y xayollari barbod bo'ladi, hamda yangi umid va intilish paydo bo'ladi.

Kasbga ko'nikishning ikkinchi tayyorlov bosqichi ijtimoiy umumiy va maxsus predmetlar hamda o'quv ustaxonalarida ishlab chiqarish ta'limini asosli egallashdan iborat kasb o'rganishdir. Bu yerda ham tanlangan kasbga ko'nikishning ancha uzoq va ma'suliyatli bo'lgan davri, ya'ni kasbni o'zlashtirayotgan malakali ishchi-shaxsning dastlabki shakllanishi yuz beradi

Bu shakllanishning muvaffaqiyati o'zini o'quv mehnati natijasidan qanoatlanish va qanoatlanmaslik bilan bog'liq yutuqlar quvontiradi va ilhom beradi, yanada kattaroq muvaffaqiyatlarga undaydi. Tasodifiy muvaffaqiyatsizlikga yanada ko'proq kuchni safarbar qiladi.

Ammo doimiy ravishdagi muvaffaqiyatsizlik ishga, o'qishga va kasbga nisbatan qiziqishi susayadi. Kasbga ko'nikishning uchinchi asosiy bosqichi yosh insonning korxonada ishchilari muhitiga singishidir.

Bu bosqich o'quvchi o'zini o'rab olgan o'sha guruhning a'zosi yoki ishchi sifatida his qiladigan, ammo ular darajasida malaka orttirmagan, tegishli mehnat unumdorligi va mahsulot sifatini ta'minlay olmaydigan, ba'zan xato va beparvoliklarga yo'l qo'yadigan ishlab chiqarish amaliyoti davrida boshlanadi.

Rasmiy jihatdan o'zining tengligi va atrofidagi kishilar bilan ishlab chiqarish malakasida teng emasligi hamda ularning èsh ishchiga «temir qanot qushcha» deb

munosabatda bo'lishini anglash uning bu bosqichdagi kasbga ko'nikishi jarayonini favqulodda murakkablashtirib qo'yadi. Buni ijobiy hal qilish esa amaliyotda korxonada ishchi kadrlari bilan birgalikda qiladigan mehnatiga bog'liq bo'ladi. Xulosaqilibshuniyaytish lozimki o'quvchi yoshlarni mehnatga o'rgatmasdan turib jamiyat uchun barkamol shaxs etib tarbiyalash mumkin emas. Mehnat insonni barkamollikka va jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi.

Yoshlarni kasb-xunarga yunaltirish va uning kasbiy qiziqishlarini aniqlash. Mehnat an'analarini tayanchi sifatida yoshlarni hayotga ijtimoiy mehnat faoliyatida ishtirok etishga tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Mehnat an'analari zamirida shaxsning axloqiy sifatleri mehnatsevarlik, yerga va tabiatga muxabbat, suvni isrof qilmaslik saxiylik, o'zgalarning mehnatini qadrlash, mehnat baxt keltirishini anglashdir.

Xalq tarbiyashunosligida mehnatsevarlik va kasb-hunarga doir g'oyalarni yosh avlodlarimiz ongiga singdirish xalq ommasining ilg'or mehnat, hunarmandchilik an'analari bafarqqaramaslik zamon talablariga mos ma'lum tarbiya jarayonlarini tashkil etishdir, kasb tanlashida ota-onalarning roli, shuningdek, buning betashvish keksalik gashtini surishdagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan tadqiqot o'tkazdi.

Tadqiqot doirasida 10 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan bolalarning ota-onalari ishtirokida so'rov ham o'tkazildi.

So'rovda 2100 kishi ishtirok etdi. (N=2100). Respondentlarning 72 foizini ayollar, 28 foizini erkaklar tashkil etdi. Ta'lim darajasi bo'yicha ularning 4,6 foizi ilmiy darajaga, 36,1 foizi oliy ma'lumotga, 21,2 foizi o'rta, 38,2 foizi o'rta maxsus ma'lumotga ega.

1. So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 28,7 foizi keksa ota-onasi bilan yashashi ma'lum bo'ldi. Farzandlaringiz tarbiyasiga kim ko'proq ta'sir qiladi, degan savolga ota-onalarning 41,6 foizi ona, 27,4 foizi ota, 9,3 foizi bobo va buvilar, 8,1

foizi aka-opalar, 7,3 foizi o'qituvchilar, 3,7 foizi begonalar va 2,5 foizi boshqa qarindoshlar, deb javob bergan.

2. So'rovda ishtirok etganlarning aksariyati (80,2%) farzandlarini ma'lum kasb bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib, elga taniladigan inson sifatida ko'rishi ma'lum bo'ldi. Moddiy ta'minlanganlik va mulk egasi bo'lishi ikkinchi orzu bo'lib qolmoqda (7,9%). Ushbu savolning javoblari ota-onalarning millati va ma'lumot darajasi, farzandning jinsi bo'yicha farq qilmaydi.

3. Aksariyat ota-onalar (95,8 foiz) farzandlari kelajagi borasida o'zaro maslahatlashgan. 88,3 foiz holatda ularning fikri bir joydan chiqqan bo'lsa, 7,2 foiz holatda fikrlar keskin farqlangan.

4. So'rovnoma javoblari shuni ko'rsatdiki, ota-onalar farzandlari kelajagini rejalashtirishda bolalarning fikriga ham e'tibor bermoqda. Ota-onalarning 97,9 foizi o'z farzandlari bilan ushbu mavzuda suhbatlashgan bo'lib, 86,3 foizi farzandlarining tanlovini ma'qullagan, 11,1 foizi qisman ma'qullagan, 1,3 foizi esa qoniqmagan.

5. So'rovnoma javoblariga binoan, yoshlarda tibbiyot yo'nalishidagi kasblarga (15,5 foiz) qiziqish kattaligi aniqlandi. Keyingi o'rinlarni o'qituvchi (9,7 foiz), IT mutaxassisligi (9,3 foiz), iqtisodchi (sohalar bo'yicha) (8,2 foiz), tadbirkor (7,7 foiz) kabi kasblar egalladi. Respondentlarning 2,5 foizi farzandlari kelajakdagi kasbi haqida hali qarorga kelmaganini ta'kidlagan.

Qizlar kutilganidek ko'proq shifokor (16,3 foiz) va o'qituvchi (13,8 foiz) kasblarini tanlagan bo'lsa, o'g'il bolalar birinchi o'rinda IT mutaxassisligi (18,7 foiz), keyin esa shifokor (13,7 foiz), iqtisodchi (13,2 foiz) va tadbirkor (11,2 foiz) kasblarini afzal ko'rgan.

6. Farzandining kasb to'g'risidagi qarori qanday bo'lmasin, ota-onalarning 81,6 foizi bu qarorni bajonudil qabul qilishini, 12,7 foizi esa ushbu qarorni o'zgartirish kerakligini iltimos qilishini aytgan.

7. Ota-onalarning 55,7 foizi farzandlariga nisbatan talabchanlik qilish, kerak bo'lganda yordam ko'rsatish, 36,2 foizi nazorat qilish orqali tarbiya berish lozimligini, 6,4 foizi esa farzandlariga erkinlik berish kerakligini qayd etgan.

8. So'rovda qatnashgan ota-onalarning 20 foizdan ortig'i farzandlarining o'qituvchilari bilan bir oyda bir marta muloqot qilishini, 16,4 foizi esa umuman muloqot qilmasligini bildirgan.

Zamonaviy ota-ona – bu mehnat bozori qanday o'zgarayotganidan xabardor kishilardir. Masalan, ba'zi bolalar veb-mutaxassisliklar haqida eshitmagan bo'lishi mumkin. Dunyo qanday va qayerda harakatlanayotganini tushunib, zamon bilan hamnafas bo'lishimiz va farzandlarimizga ham yangiliklarni uqtirishimiz zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. S. Hasanov “O'rta Osiyo mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida”. T.1996y.
2. X. Sanaqulov, M. Haydarov “Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar” 1996 yil
3. R. A. Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O “Mehnat tahlim metodikasi” T. , “O'qituvchi” 1986 yil
4. Shumulevich N. M. “Qog'ozdan texnik modellar yasash” T. , “O'qituvchi” 1989 y
5. Vorobg'yov A. SH. “Konstruktorlik va modellashtirish” T. , “O'qituvchi”1989 yil
6. Mavlonova. R. A. “Boshlang'ich sinf mehnat darsliklari”. T. 1996y.